

PSIXOLOGIYA ILIMLERI

O'QUVCHILAR KONSTRUKTIV XULQ-ATVOR XUSUSIYATLARI SHAKLLANISHIDA NIZOLI VAZIYATLARGA MUNOSABAT USULLARI

D.Sh.Norqo'ziyeva – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori

R.S.Mahammadova – talaba

Qo'qon davlat pedagogika instituti

Tayanch so'zlar: shaxslararo nizolar, konstruktiv va destruktiv nizolar, obyektiv va subyektiv omillar, ijtimoiy-psixologik, ijtimoiy-tibbiy og'ishib taranglik, xavotir, hasad, dushmanlik, g'azab, xavotirlanish, og'riq, shikastlanish, stress, befarqlik.

Ключевые слова: межличностные конфликты, конструктивные и деструктивные конфликты, объективные и субъективные факторы, социально-психологические, социально-медицинские отклонения, напряжение, тревога, ревность, враждебность, гнев, тревога, боль, травма, стресс, апатия.

Key words: interpersonal conflicts, constructive and destructive conflicts, objective and subjective factors, socio-psychological, socio-medical abnormalities, tension, anxiety, jealousy, hostility, anger, anxiety, pain, trauma, stress, apathy.

Bugungi globallashuv jarayoni o'zaro shaxslararo nizolar muammosiga ilmiy qiziqishni sezilarli darajada oshirishga sabab bo'lmoqda. Bu asosan sotsiumda zamonaviy nizolar umumiy darajasining oshishi bilan bog'liq holda yuzaga kelishi, jamiyat taraqqiyotiga sezilarli darajada salbiy ta'sir o'tkazishini inobatga olib, ijtimoiylashuv jarayonida nizoli vaziyatlardan chiqishning psixoprofilaktikasi va psixokorreksion texnikalarini yaratish va tatbiq qilishni taqozo etmoqda.

Aksariyat, shaxslararo nizolar ta'lim tizimida o'qituvchi-o'quvchi munosabatlarini qamrab olib, ko'zga tashlansa-da, oilaviy shaxslararo munosabatlarda bu ota-ona va yaqinlar bilan yuzaga kelgan muayyan ziddiyatlarni ham nazardan qochirmaslik maqsadga muvofiqdir.

Ayniqsa, ta'lim tizimida pedagogik-psixologik ta'sirlar orqali nizoli vaziyatlarni hal qilishning konstruktiv modelini ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish soha mutaxassislarini oldida turgan muammolardan biri desak mubolag'a bo'lmaydi.

Bir qator olimlar, nizolar–umuman qarama-qarshi bo'lgan qadriyatlar, munosabatlar, motivlarga nisbatan qarshilik ko'rsatish oqibatida yuzaga chiqadigan, avlodlar to'qnashuvi sifatida kecha, bugun va har doim yuzaga kelish ehtimoli yuqoriligi bilan ajralib turuvchi hodisadir [3:33], nizolar murakkab ijtimoiy-psixologik hodisa sifatida zararli bo'lishi bilan birga, muayyan sharoitlarda progressiv va ijobiy qimmatga ega bo'lishi mumkin [10:141]. Nizo ko'pincha salbiy his-tuyg'ular va taranglik, xavotir, hasad, dushmanlik, g'azab, xavotirlanish, og'riq, shikastlanish, stress, befarqlik, nafrat va boshqa holatlar bilan bog'liq [4:39], raqobat o'z faoliyatini yakka holda emas, balki boshqa odamlar bilan birgalikda amalga oshiradigan shaxsning tabiatidir [1:224]. Ijtimoiy hayotning ayrim masalalarini hal qilish bilan bog'liq holda yuzaga keladigan shaxsga xos xususiyat bo'lib, u boshqalarning moddiy yoki ma'naviy manfaatlariga,

ularning obro'siga, shaxsning ma'naviy qadr-qimmatiga ta'sir qilgandagina shaxslararo nizolarga aylanadi [8:127-131], ziddiyatli muloqot jarayoni ishtirokchilarining konstruktiv kommunikativ kompetensiyasining past darajasi bilan bog'liqligi, shaxslararo muloqotda o'zaro aloqa texnologiyalarini qo'llash bilan birga, shaxs xususiyatlarini o'ziga xos imkoniyatlari ahamiyatli ekanligi [7:149], shaxslararo nizolar kelib chiqishi evolyutsion jihatdan o'zaro bog'langan ijtimoiy hodisa sifatida [2:26-28], shaxslararo nizolar tuzilishini tahlil qilishda quyidagi tushunchalar, ya'ni: nizolarda ishtirokchilar holati, nizoli vaziyatning ko'rinishi, ishtirokchilarning nizoli harakatlari va uning oqibatlariga alohida urg'u beriladi [6:126-143].

Ammo, shaxslararo nizolarni tahlil qilishda shaxs sifatлари, sodir bo'lgan ijtimoiy muhit parametrlari orqali ziddiyatli xatti-harakatlar aniqlanishiga qaramasdan, psixologiyada shaxslararo ziddiyat haqida umumiy qabul qilingan tushuncha va to'xtamga kelinmagan.

Shuningdek, o'smir shaxsning ichki ziddiyati asosan tashqi dunyo bilan o'zaro shaxslararo munosabatlar asnosida yuzaga chiqib, shaxsning o'z ehtiyojlari, motivlari, manfaatları, maqsadları hamda qadriyatlari kurashi bilan tavsiflansa, boshqa bir tarafdin shaxsning asab sistemasidagi nevrotizm ko'rinishi bilan ham xarakterlanadi.

Shu o'rinda L.A.Semchukning fikri bilan o'rtoqlashsak, u o'z tadqiqotida nizolarni hal qilish konstruktiv va destruktiv bo'lishi mumkinligini ta'kidlaydi. Konstruktiv usul bilan shaxs jamiyatda qabul qilingan axloqiy va huquqiy normalar doirasida o'ziga, atrofdagilarga va qarama-qarshi tomonga eng kam zarar yetkazish bilan harakatlarning maqbul algoritmini tanlaydi. Nizolarni hal qilishning destruktiv usuli deganda, nizoning "soxta-yechimi", shuningdek, nizolar jamiyatning axloqiy-huquqiy normalari nuqtayi nazaridan qabul qilinmaydigan harakatlار yordamida hal qilish kabilar tushuniladi [9:185].

Nizolarni hal qilish, nizoli vaziyatni bartaraf etish va vaziyatlarni yakunlashni ifodalaydi. Nizolar qaror qabul qilish va munosabatlarni rivojlantirishga hissa qo'shsa, unda ular konstruktiv xususiyatga ega hisoblanadi. Agar ziddiyat konstruktiv bo'lsa, u muhim muammoni mohiyatini ochib beradi, uni hal qilishda ishtirokchilarni jalb qiladi. Shuningdek, shaxslarga o'z bilimlari va tajribalarini takomillashtirish va ulardan foydalanishda yordam beradi. Odatda, nizoli vaziyatlarni bartaraf etish, konstruktiv xulq shakllanishining muhim shartlaridan biri hisoblanadi. Nizo odatda kundalik turmushda uchraydigan ko'proq salbiy xarakterdagi xulq-atvorning namoyon bo'lishidir.

Bizning tadqiqotlarimizda o'quvchilarning konstruktiv xulq-atvor xususiyatlari shakllanish sharoitida nizoli vaziyatlarga munosabat usullari qanday ekanligi tadqiq etildi. Buning uchun K.N.Tomasning "Nizoli vaziyatlarda xulq-atvor usullari" test-so'rovnomasidan foydalanildi.

K.N.Tomasning nizoli vaziyatlardagi xulq-atvorni o'rganish metodikasi bo'yicha o'quvchilarning empirik ko'rsatkichlari bir necha yo'nalishlarda o'rganildi. Xususan, o'quvchilarning nizoli vaziyatlarga munosabati ularning xulq-atvoriga xos bo'lgan agressiyasi bilan chanbarchas bog'liqligi aniqlandi (1-jadval).

1-jadval. O'quvchilarining agressivlik xususiyatlari bilan nizoli vaziyatlarda xulq-atvorni boshqarish usullari o'rtasidagi korrelyatsiya

Shkalalar	Raqo- bat- chanlik	Hamkor- lik	Murosa- lilik kelishuv- chanlik	Torti- shuvdan qochish	Mosla- shuv- chanlik
Jismoniy	0,014	-0,016	-0,012	-0,094	0,042
Verbal	-0,120	-0,209*	-0,135	-0,052	0,038
Bevosita	0,119	-0,042	-0,109	0,037	-0,026
Negativizm	-0,104	-0,098	-0,187*	-0,011	0,022
Tajanglik	-0,203*	-0,154	-0,141	-0,159	0,075
Shubhlanish	0,178*	0,023	0,026	0,017	0,111
Xafagarchilik	-0,148*	-0,071	-0,188**	-0,023	-0,008
Aybdorlik hissi	0,053	-0,027	-0,006	0,156*	0,103

Izoh: * $p \leq 0,05$.

O'quvchilari nizoli vaziyatlarda agressivlik xususiyatlarini namoyon etganlarida, ular quyidagi xulq-atvor uslublariga tayanishlari aniqlandi. Birinchi navbatda tajanglik ($r = -0,203$, $p \leq 0,05$) bilan xafagarchilik ularda raqobatlashishni pasaytiradigan bo'lsa, shubhlanish esa ularda raqobatlashuvni ($r = 0,178$, $p \leq 0,05$) kuchaytirib yuborishi kuzatildi.

O'quvchilardagi mavjud verbal agressiya belgilari ortganda, nizolarni barataf etishda hamkorlik uslubi ($r = -0,209$, $p \leq 0,05$) o'z o'rnini boshqa uslublarga almashtiradi. O'quvchilarining negativizm ($r = -0,221$, $p \leq 0,05$) bilan xafagarchilik ($r = -0,221$, $p \leq 0,05$) nizoli vaziyatlarida xulq-atvorni murosallilik yo'li bilan hal etishga imkon qoldirmas ekan.

O'quvchilar nizoli vaziyatlarda agressivlik xususiyatlarini namoyon etganlarida, ular quyidagi xulq-atvor uslublariga tayanishlari aniqlandi. Birinchi navbatda tajanglik ($r = -0,203$, $p \leq 0,05$) bilan xafagarchilik ularda raqobatlashishni pasaytiradigan bo'lsa, shubhlanish esa ularda raqobatlashuvni ($r = 0,178$, $p \leq 0,05$) kuchaytirib yuborishi kuzatildi. O'quvchilaridagi mavjud verbal agressiya belgilari ortganda, nizolarni barataf etishda hamkorlik uslubi ($r = -0,209$, $p \leq 0,05$) o'z o'rnini boshqa uslublarga almashtiradi. O'quvchilarining negativizm ($r = -0,221$, $p \leq 0,05$) bilan xafagarchilik ($r = -0,221$, $p \leq 0,05$) nizoli vaziyatlarida xulq-atvorni murosallilik yo'li bilan hal etishga imkon qoldirmas ekan.

O'quvchilar orasida agressiyaning aybdorlik hissi darajasi aks etsa, u holda o'quvchilarda ($r = 0,156$, $p \leq 0,05$) nizoli vaziyatlardan o'zini olib qochishga, ya'ni kelishuvchanlikka olib kelishi kuzatildi. Bu holat o'quvchilarning o'zidan o'zi nafratlanish, xafa bo'lishi va o'zini yomon inson sifatida past baholashiga turtki beradi. O'quvchilarni bunday xulq-atvor asoratlaridan saqlash choralarini ko'rishimiz muhimdir.

Ma'lumki, nizoli vaziyatlarni bartaraf etish konstruktiv xulq shakllanishining muhim shartlaridan biri sifatida kundalik turmushda uchraydigan salbiy xarakterga ega xulq-atvorning namoyon bo'lishligida o'z ifodasini topadi.

Yuqorida keltirilgan shaxslararo nizolarni kelib chiqishiga sabab bo'luvchi muloqotning salbiy jihati o'smir shaxsining fazilatlarini, aqliy funksiyalarini shakllanishiga ta'sir o'tkazib, ijtimoiy me'yorlar hamda qadriyatlarini o'zlashtirish va umuman barcha ijtimoiylashuv jarayonida buzilishlarni keltirib chiqaradi. Bizning fikrimizcha, bunday hodisalarning oldini olish uchun o'smirlarning kommunikativ va ijtimoiy-psixologik mavqeini oshirish, boshqalar bilan shaxslararo o'zaro munosabatlarning konstruktiv modellari va usullarini shakllantirish, agressiv xulq ko'rinishlarini simulyatsiyalovchi chora tadbirlarni ishlab chiqish ayniqsa, ziddiyatli vaziyatlarni psixoprofilaktika va psixokorreksiya qilishda muhim o'rinni egallaydi.

Adabiyotlar

1. Аникеева Н.П. Психологический климат в коллективе. -М.: 1989. -С. 224.
2. Анцупов А.Я. О междисциплинарном подходе к изучению конфликта. /А.Я.Анцупов, А.И.Шипилов. // Современ. соц. технологии: Сущность, многообразие форм и внедрение: Материалы междунар. науч.-практ. конф. – Белгород: 1991. Ч. 4. –С.276.
3. Баранова С.В. Вредные привычки. Избавление от зависимостей. –Ростов на Дону: "Феникс" 2007. –С. 186.
4. Мелибруда Е.Я. –Ты–Мы: Психологические возможности общения. -М.: "Прогресс", 1986. -С. 254.
5. Норкўзиёева Д.Ш. Мактаб ўқувчиларида конструктив хулқни шакллантириш динамикаси. Дис.Психол. псих. ф.б.ф.д.(Ph.D). –Тошкент: 2023.

6. Петровская Л.А. О понятийной схеме социально-психологического анализа конфликта. // Теор. и методол. проблемы соц. психологии. – М.: 1977. –С.158.
7. Реан А.А. Социальная педагогическая психология. /А.А.Реан, Я.Л.Кодаминский. –СП б. –Питер: 1999. –С.149.
8. Смирнова Т.П. Психологическая коррекция агрессивного поведения детей. Серия «Психологический практикум». – Ростов н/Д: «Феникс», 2004. –С.160.
9. Семчук Л.А. Понимание учителем ученика и самого себя в конфликте. Дисс... канд. психол. наук. – Гродно. 1992.
10. Корчагина Н.Г. В развитии конфликтной личности. Вестник ПСТГУ IV: Педагогика. Психология, 2008. Вып. 2(9), -С. 141.

REZYUME. Maqolada ta'lim tizimida yuzaga keladigan shaxslararo nizolarning jamiyat rivojlanishiga salbiy ta'siri, kelib chiqish omillari haqida fikr yuritilib, unda ijtimoiy-psixologik-tibbiy jihatlari yoritilgan. Shuningdek, ta'lim tizimi samaradorligining pasayishiga olib kelishi to'g'risida mulohazalar keltirilgan.

РЕЗЮМЕ. В статье рассматривается негативное влияние межличностных конфликтов, возникающих в системе образования, на развитие общества, факторы их возникновения, социально-психолого-медицинские аспекты. Также приводятся соображения о снижении эффективности системы образования.

SUMMARY. The article examines the negative impact of interpersonal conflicts arising in the education system on the development of society, the factors of their occurrence, socio-psychological and medical aspects. Considerations for reducing the effectiveness of the education system are also presented.

ВЛИЯНИЕ СЕНСИТИВНОСТИ НА КОГНИТИВНОЕ РАЗВИТИЕ МЛАДШИХ ШКОЛЬНИКОВ

Л.С.Турсунов – кандидат психологических наук

Ташкентский государственный педагогический институт имени Низами

Таянч сўзлар: ақл, нораціоналлік, тафаккур, идрок, фантазія, хотира, тафаккур, онтогенез, фаолият, онксизлик, онг, билим, таклид, қизиқиш, қобилият.

Ключевые слова: разум, не разумность, созерцание, восприятие, фантазия, память, мышление, онтогенез, активность, бессознательность, осознанность, знание, подражание, интерес, способность.

Key words: mind, non-intelligence, contemplation, perception, fantasy, memory, thinking, ontogenesis, activity, unconsciousness, awareness, knowledge, imitation, interest, ability.

Научные исследования показывают, что среди миллиардов потомков Адама, живущих на нашей планете, невозможно найти двух абсолютно одинаковых людей. Это разнообразие также отражается на когнитивном развитии, особенно в младшем школьном возрасте, когда формируются ключевые навыки обучения.

Грамотность является важной характеристикой, которая долгое время воспевалась в народной культуре. Это подтверждается пословицами, такими как: «Слово острее меча» и «Кто не читает, тот читать будет; кто читал, того прочтут». Эти выражения подчеркивают, как грамотность и способность к обучению влияют на успех в жизни и образовании.

Беглость речи — это способность ребенка быстро осваивать деятельность, основанную на его склонности к определенным занятиям. Эта характеристика проявляется в каждом человеке. Профессор Э.Газиев описывает беглость как уровень владения языком, который влияет на активизацию мышления учащегося. Он утверждает, что когнитивная гибкость включает в себя интеллектуальные характеристики, активизирующие мыслительную деятельность и играющие важную роль в успешном усвоении материала. Учащиеся с высоким уровнем владения языком могут быстро и глубоко усваивать знания, что, в свою очередь, влияет на их отношение к учебе. Если отношение положительное, это проявляется в внимании, интересе и волевых усилиях в процессе усвоения материала [1].

Процесс приобретения знаний охватывает как сознательную, так и подсознательную деятельность, что часто приводит к высокой степени беглости в одной области, в то время как в другой сфере может наблюдаться низкий уровень. Например, ребенок с хорошими математическими способностями может испытывать трудности в освоении чтения и письма. Ученики, свободно владеющие языком, способны быстро сопоставлять новые знания с ранее усвоенными, делать выводы и демонстрировать, как они получают новые знания. Однако, чтобы ребенок смог освоить новые знания, ему необходимо хорошо усвоить уже имеющиеся. Поэтому учителям начальных классов важно внимательно следить за восприятием новой информации учениками, уделяя особое внимание тем детям, у которых возникают трудности в обучении.

Несмотря на то, что учащиеся с низким уровнем навыков чтения обладают сильным желанием хорошо учиться, их отношение к чтению часто определяется недостаточным владением эффективными методами. Они могут продолжать стремиться к знаниям через запоминание, что замедляет их учебный процесс. Важно отметить, что они могут считать, что учитель всегда даст полное объяснение учебного материала. Учащиеся с низким уровнем языковой подготовки сосредотачиваются на запоминании информации, изложенной в учебниках и объясненной учителем [1].